

# TONG yulduzi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

2011-YIL  
10-OKTABR  
N:41  
(66842)

ISSN - 2010-6092

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasи

## HAMMAMIZNING GAZETAMIZ!

Qadrlı bolalar!

Mamlakatimizda bolalar nashrlariga «Obuna - 2012» mavsumi boshlandi. Shu jumladan, «Tong yulduzi» gazetasiga ham kelasi yilga obuna bo'lishingiz mumkin. Gazetangizda kelgusi yilda ham yanada qizigarli, rangbarang, mazmunli, dolzarb maqola va xabarlar, she'r, ertak va hikoyalar chop etiladi. U sizga eng yaqin do'st, maslahatchi vazifasini o'taydi.

«Obuna - 2012» mavsumini yuksak darajada o'tishini ta'minlab, «Tong yulduzi», «Klass», «Gulxan», «G'uncha» nashrlariga eng ko'p obunani uyuhshtirgan maktab, litsey, kollejlarga «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi quyidagi mukofotlarni ajratdi:

1. Maktab, litsey va kollejlarga:

1-o'rın - 2 dona kompyuter;

2-o'rın - 3 dona televizor;

3-o'rın - 3 dona DVD pleyer.

2. «Obuna - 2012»ni tashkil etishda faol ishtirok etganlarga:

10 dona diktofon.

Bu ezgu ishda barchangizga  
omad yor bo'lsin!

Kim ko'p kitob o'qiydi?  
tanlovi yakunlandi



Ilmga chanqoq yosh do'stim!  
Bugun seni tilimizning fusunkor  
olamiga – bebaaho injularga to'la  
vodiysi tomon boshlaymiz. Bu  
olam hayratlar bog'i, behisob  
durlar makoni. Bu olamni ellik  
ming baytni yod bilgan Hazrat  
Navoiy bobomiz qanchalik sevib,  
qanchalik ardoqladi, uni yer-u  
ko'kning lojuvard dunyosiga  
aylantirdi.

U zotning nodir hikmatlari sira  
eskirmaydi:

«Tilga ixtiyorsiz – elga  
e'tiborsiz».

Uning har bayti inson qalbini  
ilitadi, sohir kuyday yuz chandan,  
balki ming chandon shirin  
his-tuyg'ularga to'ldiradi.

Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas,  
Meni istar kishining suhbatin ko'nglum pisand etmas.



musulmon dinlig', odamiylik  
inonchi, mo'minlar quvonchi,  
himmati adiz (baland), aqli tegiz  
(to'kis) beginiz Nosiriddin  
To'qbug'adini... iltimos yanlig'  
ishorat bo'ldi.

Ne zotlar bu tilning himoya-chisi, targ'ibotchisi bo'lmadilar.

Ey, yosh do'stim, bu tarovatlari  
boqqa bir nazar tashlang!

Amir Temur so'zi. «Temur  
tuzuklari» – bir mamlakatdir bu  
boqqa yarashgan.

«Chaqaloqlarni yig'latmangiz,  
bu gunohi azimdur».

Bobur Mirzoning bebaaho durlari,  
armonlari bu! Shohki Vatan-dan  
uzoqda yurib, o'zini tolei  
yo'q kishi deb atadi. «So'zumni  
o'qub sog'ingaysen o'zumni»,  
dedi. Voh, bu so'z-a! So'zmi bu  
yoki o't?! Yurakni kuydirib  
yuboradi-ya!

O'z yurtni qo'yib Hind sori  
yuzlandim,

Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

«Yomonliq shoyi' edi», deydi  
u. Fikrning teranligi, muxtasarligi  
jilosini ko'ring. U bir tengsiz  
g'avvos bo'ldikim, tilimiz ummoni-  
ning tub-tubidan injular terib,  
bizga goldirdi.

Nodirai davron ekkan sada  
gullar,

Cho'lpon parvarishlagan  
azim chinorlar.

Usmon Nosirning xushbo'y  
rayhonlari bor bu bog'da!

Abdulla Qodiriy bu dargohdan  
hech kim norizo bo'lgan emas,  
ma'nosida so'z aytgan.

Oybek so'zlarining har biri  
bir yulduz.

Yana Hazrat Alisher Navoiy-  
ning bepoyon «hovlisi»ga boqamiz:

Insonni so'z ayladi judo  
hayvondin,

Bilkim, guhari sharifroq yo'q  
ondin.

Yosh do'stim!

«Aql ko'rki so'z» ekan, bu til  
bog'i injularga to'la ekan,  
hamisha undan durlar teri-  
shingizni, uni sevishingizni,  
bayram kunlarida har so'zingizni  
tumor bilishingizni tilayman.

Go'zal, betakror, boy tilim,  
Yo'lim yoritgan oy tilim...

To'lqin HAYIT



**Biz Sizni eng muhim va  
qiziqarli ma'lumotlar bilan  
tanishtirishda davom etamiz.  
Bugungisi ham Siz uchun juda  
muhim deb hisoblaymiz.**

## TIB QONUNLARI

Buyuk Vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino  
nomidan «Madadi Sino», ya'ni Yevropada  
Avisenadan meditsina so'zi kelib chiqqani  
qayd etiladi.

Uning «Tib qonunlari» hozir ham yuksak  
qadrlanadi.

## IBN SINO BILGAN TABIBLAR

1. Buqrot, ya'ni Gipokrat – miloddan  
oldingi 355-460-yillarda yashagan.

2. Dioskorid – I asr.

3. Jolinus, ya'ni Galen – 129-200 y.y.

4. Oribaziy – 325-402 y.y.

5. Pavel – 615-690 y.y.

6. Abu Jurayj – taxminan VIII asr.

7. Motsar Jayah – Basrada yashagan  
tabib va tarjimon.

Ibn Sino uni al-Yahudiy deb atagan.

8. Masih ad-Dimashqiy – 786-809 y.y.

9. «Kunnosh al-Kabirs» asari bor.

10. Eronlik Ibn Mosavayh – 777-857 y.y.

11. Sobur ibn Sahl – 869-yilda vafot etgan.

Bag'doddagi kasalxonha bosh tabibi.

12. Sahorbuxt – Bag'doddaga yashagan.

13. Abubakr Roziy – 865-925 y.y.

14. Ali ibn Rabban at-Tabarty – 182-808 y.y.

## Izoh:

Siz bu olimlarning hayotini  
o'rgansangiz, juda katta  
sizlarning orangizdan ibn  
Sinolar yetishib chiqishini orzu  
qilamiz. O'zbek tibbiyotining  
kelajak ravnaqi sizga ham  
bog'liq ekanligini unutmang.

## AQL KO'RKI

# SO'Z ERUR

( Esse )

Bu bayt o'zimizning boy,  
betakror tilimizda asrlar osha  
jaranglab kelmoqda. Shunday  
injularga to'la tilimiz borligidan  
quvonmay bo'ladimi?!

Ey, yosh do'stim!

Hazrat Alisher Navoiygacha u  
saygal topib keldi.

Yusuf Xos Hojibning «Qutad-  
g'u biling».

«Aql ko'rki so'zdir».

Ming yillar kalomi bu!

Mahmud Qoshg'ariy. «Devonu  
lug'otit turk».

Alp Er To'ng'aga bag'ishlan-  
gan 40 satrli marsiya, 32 satrli  
she'r, 86 satrli she'riy tasvir –  
adabiy tilimizning eng qadimiy  
namunalari!

Bilikni yugarman,  
Ko'ngilni tugарman.  
Ulug'ni tilarman,  
Tilakni bo'larman.

Bu satrlarning qaysisi bizga  
begona?!

Bugungi tilimiga ko'chirsak,  
bir-ikki so'zga izoh beramiz,  
xolos: «Bilikni yig'aman, ko'ngil-  
ni qistayman, ulug'lik tilab, tilakni  
yo'qlarman».

XI-XII asr.

Ahmad Yassaviy o'gitlari  
olamni hayratlarga solgan davr.

«Devoni hikmat» oyni  
uyaltirib turadi haligacha!

Mani hikmatlarim xo'blarga  
ayting.

Duo-takbir aytib rahmatga  
boting.

Ana shunday, yosh do'stim!  
Ming yillarki, bu til o'z  
ko'rkini jahon uzra sobit saqlab  
kelmoqda. Yo'q, yo'q, faqat sobit  
saqlab kelmayapti, balki aqlni  
peshlab kelmoqda.

Bu til insonni, millatni, borliqni  
sevishga o'rgatib kelmoqda.

XVII asr. Turdi Farog'iy qalami  
kuchini ko'ring.

Tor ko'ngillik beklar, man-man  
demang, kenglik qiling.

To'qson ikki bori o'zbek  
yurtidir, tenglik qiling.

1310-yil.

Yana Rabg'uziy so'zi bor bu  
bog'da.

«Qisas-ul anbiyo»dir uning  
muborak nomi.

«Ulug' otlig', qutlug' zotlig',  
ezgu xulqlig', islom yorug'lig',  
mo'g'ul sanilig' (martabalik),

# BAXTLI QIZ

Sitora Umarova 1991-yil 22-aprelda Buxoro shahrida tug'ilgan. Hozirda Buxoro Davlat universitetining 2-bosqich talabasi. Hayotdagi shiori: «Iste'dodingni to'g'ri yo'naltir va imkoniyatlardan unumli foydalana bil!»

Sitoraga bergen birinchi savolimiz uning shu kunga qadar erishgan yutuqlari haqida bo'ldi:

- Maktabda o'qib yurgan paytalarim Kamolot YOIH «Kamalak» bolalar tashkiloti hamkorligida o'tkazilgan «Eng yaxshi sardor» tanlovingining «Eng zukko sardor» nominatsiyasi g'olib bo'lganim meni juda ruhlantirib yuborgan edi. Bu ko'tarinki kayfiyat turki bo'lib, shu yili nomzodlar orasida o'tkazilgan «Zulfiya qizlari» tadbirining she'riyat va raqs yo'nalishi bo'yicha viloyat bosqichida ishtirok etish baxtiga tuyassar bo'ldim. «Eng yaxshi kitobxon», «Prezident asarlari bilimdoni» ko'rlik-tanlovlarning shahar va viloyat bosqichlari g'olibasi bo'lganimda, quvonchimni ichimga sig'dirolmaganman. Ketma-ket kelgan muvaffaqiyatlarim meni «Konstitutsiya - baxtimiz qomusi», «Vatan sajdah kabi muqaddasdir», «The happiest day of my life» nomli insholar tanlovlariiga yetakladi.

«Kelajak ovozi - 2011» Respublika yoshlar tanlovingining viloyat bosqichida adabiyot va publisistika yo'nalishi bo'yicha g'olib bo'lganimda, ustozlarim, ota-onamning ko'zlaridagi faxrni ko'rib, o'zimni dunyodagi eng baxtli qiz deb his qilganman...

Sitoraning she'r, hikoya va nasriy mashqlari turli nashrlarda, jumladan, «Buxoro oqshomi», «Buxoroi sharif», «Zamona», «Buxoro yoshlari» gazetalarida tez-tez chop etilib turadi. Quyida uning «Bolalik» nomli badiasisini sizning e'tiboringizga havola etamiz.



O, bolalik! Seni ko'proq shirindan-shakar bolalarining qiyqiriglari-yu qo'g'irchoq talashayotgan qizchalarini ko'rganda, qadrond sinfdoshlar-u ustozlarimni uchratganda eslayman. Seni qo'msamaydigan inson bo'lmasa kerak...

Yodimda, jaifi qizaloq edim. Ko'p qavatlari uylarda yashardik. Oym buypurgan ishlarni naridan-beri bajarardim-u, ko'chaga, qiyqirishib o'ynayotgan dugonalarim oldiga oshiqardim. Samoda ilk yulduzchalar mittillaguniga qadar ko'chada qolib ketardim.

Umр ogar daryo deganlari rost ekan. Biz istamasak-da, sen bizni tark etding! Endi esa ko'cha-ko'ya, tanish-notanish bolalarini ko'rganimda, o'z bolaligimni ko'rgandek bo'laman. Uni mahkam quchoqlab o'pgim, bag'rima

## BOLALK

bosib erkalagim, u bilan birga o'ynagim, kulganida kulgim, yig'laganida ootgim keladi.

Bolaligim, ayni damda seni qo'msashni emas, orzularim, shodon kunlarimni sen bilan birga baham ko'rishni istayman. Sening olamingda baxtiyor kunlarim o'tdi. Senda goldi mening beg'ubor kulgularim...

Ha, tengdoshim!

Shunday damlarni, beg'ubor onlarni bizga taqdim etgani uchun hayotdan minnatdor bo'lishimiz kerak...



Aziz bolajonlar, sezdingizmi, Sitora opangiz bolalik damlarini judayam sog'inibdilar. Sizga esa kattalarning havasi keladi. Nega, deysizmi, chunki Siz eng beg'ubor, eng baxtiyor palladasiz. Bu damlarning qadriga yeting. Toki bolaligingizdan faqat yaxshi xotiralar qolsin!

Gulyuz BAHODIR qizi

## HAMISHA HAMROHIMIZ



Bizning Toshkent matbaa-noshirlig kollejimiz 1970-yil tashkil topgan bo'lib, o'sha vaqtida Markaziy Osiyoda yagona hisoblangan ekan. Hozirda kollejimizda o'quvchilarga 6 ta mutaxassislik bo'yicha bilim beriladi. Direktorimiz Otobek Yahyoyev biz uchun yaratilgan shart-sharoitlarga javoban faqat a'lo baholarga o'qishimiz lozimligini doim ta'kidlaydilar.

Buning uchun esa turli nashrlarni muntazam o'qib, yangiliklardan boxabar bo'lishni oldimizga maqsad qilib go'yganmiz. Shu sababli, «Tong yulduzi»ga obuna bo'ldik. Endi yil davomida sevimli nashrimiz bizga hamroh bo'ladi.

Dilrabo RAVSHANOVA, talaba

- «Tong yulduzi» gazetasidan kelishibdi!..

Bu xabar bir zumda maktab uzra qanot yozdi.

Poytaxtimizning Yunusobod

## «TONG yulduzi» - HASANBOYDA

tumanidagi 313-umumta'lim maktabida mingdan ortiq o'g'il-qizlar tahlil olishadi. Ular mehmonlarni xushnudlik bilan kutib olishdi. Tahririyat xodimlari Axtamqul Karimov, Muzaffar Ahmedoylar o'quvchilarga mamlakatimizda bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar, odob-axloq va boshqa mavzularda ma'ruzalar qildilar. So'ng, savol-javoblar boshlandi.

O'quvchilar she'rlaridan namunalari o'qishdi. «Tong yulduzi» gazetasi haqida fikr-mulohazalarini bildirishdi. Hasanboyda o'tkazilgan bu uchrashuv barcha o'g'il-qizlar qalbida unutilmas iz qoldirdi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'z muxbirimiz

Al-Xorazmiy,  
Al-Beruniy,  
Al-Zamahshariyedek  
buyuk daholari bilan  
mashhur bo'lgan  
qadimiy va hamisha  
navgiron Xorazm  
viloyatining  
Urganch shahrida  
joylashgan  
5-maktab nafaqat  
tuman, viloyatda,  
balki respublikada  
ham ictidorli  
o'quvchilari-yu  
ta'lif fidoyilar  
bilan dong  
taratgan.

Respublikada  
«2011- yilning eng  
yaxshi maktabi»  
nomini oлган bu  
ta'lif maskani bilan  
yaqindan tanishishni  
niyat qilib,  
maktabning  
ma'naviy va ma'rifiy  
ishlar bo'yicha  
direktor o'rinosari  
Mamatjon opa  
QURBONOV Ani  
suhbatga tortdik.

## YILNING ENG YAXSHI



Maktabda 1602 nafar o'quvchiga 89 nafar o'qituvchi ta'lif-tarbiya beradi. Ular orasida O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi Shukurjon Avezova, I darajali «Sog'lom avlod» ordeni sohibi Sa'dulla Sobirov, shuningdek, 14 nafar O'zbekiston xalq ta'limi a'lochisi ko'krak nishondorlari faoliyat yuritadi.

Keyingi uch yil mobaynida ta'lif maskanining ustozlari – ingliz tili fani o'qituvchisi Barno Do'schanova, Malika Azimova, Galamnur Atamuratova, boshlang'ich sinf o'qituvchilari Umida Sobirova, Bahrom Quramboyev, fizika fani o'qituvchisi Zulxumor Matyoqubova, kimyo fani o'qituvchisi Adolat Atajanova «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rlik-tanlovining respublika bosqichida qatnashib, faxrlri o'rinnlarni egalladilar.

Fizika fani o'qituvchisi Sayyora Alimova «O'zbekiston madaniyati va san'ati Forumi» jamg'armasining pedagogik grantni qo'lga kiritdi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Umida Sobirova Germaniyada o'tkazilgan «Masofadan o'qitish va tajriba almashish» borasidagi o'quv seminarda qatnashdi.

Ana shunday pedagogik mahoratga, tajribaga ega bo'lgan ustozlar bugungi kunda yoshlarga ta'lif-tarbiya berishda bor kuch va mehnatlarini ayamayaptilar. O'tgan yillarda davomida o'quvchilardan Gulnoza Umirova Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi bo'ldi. «Prezident asarlari bilimdoni» respublika ko'rlik-tanlovida uch nafar o'quvchi qatnashdi va Nargiza Xo'janiyozova I darajali, Go'zaloy O'zbekova, Hayotxon Rahmonova II darajali Diplomlarni qo'lga kiritishdi.



**Hayotxon**

Maktabda tashkil etilgan «Turon» futbol jamoasining bugungi kundagi yutuqlari ham maqtovga loyiq. Jamoaning to'rt nafar a'zosi viloyat «Xorazm yoshlari» terma jamoasi o'yinlarida ishtirok etib kelmoqda.

Shohruh Quramboyev boks bo'yicha respublika championi bo'lsa, Najmiddin Madaminov «Stol tennis» bo'yicha viloyat championi. Bu kabi yutuqlarni yana uzoq sanashimiz mumkin.

## MAKTABI

Maktabda «Bola iqtidorli, ota-onal e'tiborli!» mavzuida ochiq eshilklar kunlari o'tkaziladi. Bu tadbir orqali ota-onal farzandining darslarni qay darajada o'zlashtirayotganini, iqtidorini namoyon etayotganini yoki aksincha, ta'lif olishda oqsayotganlik sabablarini birgalikda muhokama qiladilar. Hamkorlik esa hamisha yaxshi samara beradi.

«O'z qo'lism, zehnim va mehrim bilan». Bu misralar har bir o'quvchining shioriga aylangan. 19 ta fan, 27 ta kasb-hunar to'garaklarida 785 nafar, maktabdan tashqari to'garaklarda esa 705 nafar o'quvchi bo'sh vaqtlanri mazmunli o'tkazishga intildi.



**Surayyo**

Kuni kecha maktabda yana xushxabar targaldi. 9-sinf o'quvchilaridan Jasurbek Ro'zmetov «Kelajak ovozi» tanlovining Respublika bosqichiga yo'llanma olibdi. Xosiyat Qurbanboyeva esa «Giyohvandlikka qarshi kurash» ko'rlik-tanlovining viloyat bosqichida 1-o'rinni egallabdi. Tinib-tinchimas, bilimdon ustozlarga ming rahmat, degimiz keladi. Aminmizki, ana shunday o'qituvchilar qo'lida tarbiyalanayotgan o'quvchilarning kelajagi porloqdir.

Feruza SOYIBJON qizi

**MILLIY QO'SHIQ SHAYDOSIMAN**

Tunov kuni dugonalarim bilan kuy va qo'shiqlar mavzusida bahstashib goldik. Kimdir estrada qo'shiqlarini, kimdir rok, pop musiqalarini, yana kimdir lirik qo'shiqlarni yoqtirar ekan. Men esa xalq qo'shiqlarini maroq bilan tinglashimni aytdim.

Hozirgi kunda ko'pchilik tengdoshlarimiz g'arb madaniyatiga taqildi, tushunib-tushunmay chet tilidagi shovqin-suronli qo'shiqlarni, misiqalarini tinglashadi.

Ular atrofdagilarning, ayniqsa, yoshi ulug' insonlarning ruhiyatiga, salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini bilisharmikin? Ularga tanbeh bersangiz, hozir zamon o'zgargan, deya og'zingizga urishadi. Menimcha, zamon emas, ayrim yoshlarni o'zlarini o'zgarib ketishgan.

Aziz do'stlar, har qanday sharoitda ham o'zligimni yo'qotmaylik, bobo meros qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an'analarimizga hurmat bilan qarab, bizdan keyingi avlodlarga ham yetkazaylik.

Zarnigor ERALIYEVA,

Samarqand viloyati, Ishtixon tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan Davlat umumta'lif maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi



### MENING YULDUZIM

Har haftaning dushmanba kuntari «yulduzim» meni so'roqlab keladi. Eng yaqin do'stim, yordamchim, maslahatgo'yim. U orqali fikrlarim kengayadi, bilimim ortadi. Undan sira ajralgim kelmaydi.

Bu qanday yulduz ekan, deysizmi? Albatta, «Tong yulduzi» gazetasida! Siz ham sevimli gazetangizga obuna bo'lishga shoshiling!

Zarnigor MAHMUDOVA,  
Jizzax viloyati, Forish tumanidagi 33-maktab o'quvchisi



Qadrli o'quvchilar, yodiningda bo'lsa, «Tong yulduzi» gazetasi hamda «Kamalak» Respublika bolalar tashkiloti hamkorligida o'tkazilgan «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovi yakunlangani haqida xabar berган edik.

Nihoyat, kitobsevar o'g'il-qizlar intiqlik bilan kutgan damlar ham yetib keldi. Kuni kecha tahririyatimizning bayramona bezatilgan faoliyatlarda tanlov yakuniga bag'ishlangan ajoyib tadbir, anigrog'i, kitobxonlar bayrami bo'lib o'tdi. Poytaxtimizdagi 59-umumta'l'm maktabi o'quvchilarini, taniqli bolalar adiblari, jurnalistlar, ustozi, ota-onalar ishtirokidagi tadbir juda qiziqarli o'tdi. Taniqli shoir va yozuvchilar qo'sidan sovg'a olgan tanlov g'oliblari bu kunni bir umr eslab yursalar, ajabmas. So'ngra, marosimimiz mushoiraga ularin ketdi. Bolalarning sevimli shoirasi Kaysar Turdiyevanig qunvoq she'rлarin nafaqat o'quvchilar, balki kattalar ham maroq bilan tinglashdi, shoir Axtamquli g'azallari davraga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Jabbor Razzoqov, «Tong yulduzi» gazetasi Bosh muharriri To'lg'ın Hayitovning kitobxonlik haqidagi suhabatlari bolalarni munozaraga chorladi. Yig'ilganlar so'z ustasi Xudojberdi Ziyodov va uning o'g'il Biloljon Ergashevning ichakuzdi hangomalarini tinglab, zavqlanib kulishdi. Xudojberdi aka yig'ilganlarga mohir so'z ustasi bo'lish uchun ham juda ko'p kitob o'qish lozimligini ta'kidladilar.

Tadbir yakunida ijodkorlar bolalarga dastxatlar qo'yilgan kitoblaridan sovg'a qilishdi, ularni qiziqitgan savollarga javob berishdi.

Biz esa tanlov ishtirokchilarining taassurotlarini yozib oldik:

## Kitobxonlar Bayrami

- Dilnoza NOROVA, Navoiy shahridagi 11-Davlat ixtisoslashtirilgan maktabining 8-sinf o'quvchisi, 1-o'rinni sohibasi:

- Tadbirdan bir olam taassurot oldim. Taniqli shoir va yozuvchilar bilan tanishdim, ko'plab do'star orttirdim. Umid qilamanki, bunday tanlovlardan hali yana davom etadi. Gazetaning barcha muxlislariga, sinfdoshlarimga ham mana shunday tanlovlarda qatnashishi maslahat beraman. Faqat g'oliblik uchun emas, ma'nan yetuk bo'lib kamol topishimiz, dunyoqarashimizni boyitishimiz uchun ham ko'p kitob o'qishimiz lozim, deb o'layman.



Shodiyabegim SHAROFIY, Jizzax Davlat pedagogika instituti qoshidagi «Sayiljoy» akademik litsey o'quvchisi, 2-o'rinni sohibasi:

- Kitob - dunyoning sakkizinchini mo'jizasi. Inson xotirasini mustahkamlovchi, ma'naviyatini ulg'aytiruvchi manbaadir. Qalbimda kitobga bo'lgan mehrni ota-onam uyg'otganlar. Kichik yoshimdan menka ko'plab kitoblar sovg'a qilardilar. Hatto sovg'a olgan birinchi kitobimning nomi ham yodimda, «Tulkivoyning sarguzashtlari» edi. Bugun taniqli adiblarimiz bilan uchrashdik, tanishdik, ijod ostonasi va hayot yo'lidagi qadamlarim tetiklashdi. Yana bir bor «G'alaba emas, g'alabagacha bo'lgan yo'l» shiorimining naqadar to'g'riligiga yana bir bor amin bo'ldim.

Otam-onamni ham ma'nan kamol toptirgan bu gazetani men ham o'zimga ustozi deb bilaman.



ZUBAYDA olgan suratlari

Dilsora ABDUSATTOROVA, Toshkent viloyati, Parkent tumani 1-umumta'l'm maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi, 2-o'rinni sohibasi:

- Mustaqilligimiz sharofati bilan biz yoshlarga keng imkoniyatlar yaratildi. Mazkur tanlovimiz ham bizga bilim va intellektual salohiyatimizni namoyon qilish imkonini berdi.

Tanlovdan ko'plab qiziqarli ma'lumotlar oldim, ustozi larimiz o'gitlaridan bahramand bo'ldim.

Tanlovda yana qatnashib, 1-o'rinni qo'Iga kiritish niyatidaman. Buning uchun esa yanada ko'proq kitob o'qiyman.

Sevimli nashrim «Tong yulduzi»ga 2012-yil uchun birinchilardan bo'lib obuna bo'ldim.



Mehriniso RASHIDOVA, Pskent tumani:

- Bugungi yoshlarga juda havasim keladi. Ular uchun imkoniyatlar eshiklari keng ochilgan, bilim olishlari, hunar o'rganishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Mazkur tanlovda ishtirok etgan nabiram Dilsorani bugungi yutug'i bilan tabriklayman. U biz erisha olmagan yutuqlarga erishyapti. Yana ko'proq tanlovlarda qatnashib, bundan-da kattaroq muvaffaqiyatlarni qo'Iga kiritishiga tilakdoshman.

Bunday tanlovlarni tashkillashtirigan tahririyat xodimlariga o'z minnatdorchilikini bildiraman.



Dilorom HAKIMOVA, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi:

- Bugun hayajonim juda kuchli. Chunki mening ham adabiyotga mehrim bo'lakcha. Uyimzida Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Sa'dulla Hakim singari taniqli adiblar bilan ijodiy kechalar yushtirildik. Farzandlarimizni kitobxonlikka undaydigan bunday tadbirlar muntazam o'tkazib borilishini istayman.

## YANGISIDAN ESHITAYLIK

Poytaxtdagi V.Uspenskiy nomli akademik litizing 7-«V» sinf o'quvchisi Biloljon Ergashevning chiqishi davraga o'zgacha qunvoq kayfiyat bag'ishladi.

Tadbir so'ngida uning atrofini o'quvchilar o'rab olishti va yana latifa aytib berishini iltimos qilishdi. Biloljon ham bo'sh kelmay, hangomani boshlab yubordi:

Oyisi to'rt yoshli o'g'lidan so'radi:  
- Nima qilyapsan?  
- O'rtog'imga xat yozyapman.  
- Iye, yozishni bilmaysan-ku...  
- Qo'yavering, o'rtog'im ham o'qishni bilmaydi-ku...

Zalda yana kulgu ko'tarildi. Biz ham fursatdan foydalabim, uning qiziqishlari, orzulari haqida so'rakid.



- San'atni yaxshi ko'raman. Qo'shiq aytish, musiqa chalish eng sevimli mash'ulotim. Badiy kitob o'qish esa har kunlik odatim. Hajiyit kitoblarini, Anvar Obidjon asarlarini, Nasreddin Afandi hangomalarini jon-u dilim bilan mutolaa qilaman. Ilk tinglovchilarim do'stilarim -

Jahongir, Behruz, ustozi - Ramziya opa, Umida opalar va albatta, dadam. Ulardan behad minatdorman.

Biloljonning qiziqchilikka mehr qo'yishida otasi - san'atkor Xudojberdi Ziyodovning hissasi katta. San'atni sevib ardoqlayotgan yosh do'stimiga omad tilab qolamiz.

OLMOS

Mana, aziz o'quvchilar, tanlov g'oliblari-yu mehmonlarining dil so'zlarini bilan tanishdingiz. Ularga havasingiz keldimi? Ota-onangiz, ustozi larinizi, buvi va buvalaringiz Siz bilan faxlanishsa, bu baxt-ku, axir! Shunday ekan, Siz ham gazetamizni kuzatib boring, unda e'lon qilinayotgan tanlovlarda ishtirok eting, g'oliblikni qo'Iga kiring. Bunday tanlovlardan bexabar qolmaslik uchun esa sevimli nashringizga OBUNA bo'ling! «Kim ko'p kitob o'qiydi?» an'anaviy tanlovimizni kelasi yili yana davom ettirish niyatidamiz. Umid qilamizki, unda o'g'il bolalar ham faolroq ishtirok etishadi. Ular orasida ham kitobxon o'quvchilar ko'pligiga shubhamiz yo'q.

Feruza JALILOVA

Parkent tabiatan jannatmonand, musaffo havo, shifobaxsh buloglar maskani. Bog'laridan bol tomib turadigan bu go'shaning odamlari shoirtabiat, san'atsevar, dilkash, dilbar. Ayni paytda Parkent deyarli barcha sohalarda iste'dodlar go'shasi. Ayniqsa, tumandagi ijodiy muhit maqtovga sazovor. Birgina Parkentdan uch qizning Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibi bo'lishi fikrimizni tasdiqlaydi.

Men Sevinchni ko'z ochayotgan buloqqa mengzagim keldi. Ko'z ochayotgan buloqni ko'rish esa ko'ngilni daryodek toshiradi. U tumandagi 1-maktabning 7-sinf o'quvchisi. Ammo o'yaydigan, fikrlaydigan, satrlarida tashbehtar topishga intilayotgan qiz. Zero, intilayotganga esa tole yor! Shunday bo'lishini chin yurakdan istab, «Tong yulduzi» o'quvchilariga Sevinch Xursanaliyevning bir she'rini ilingim keldi.

Mahmud TOIR,  
O'zbekiston xalq shoiri



### O'ZBEK AYOLI

Ko'zlaridan o'tlar chaqnab turuvchi, Yuraklari ezhilik deb urguchchi, Tinchlig-u go'zallik qasrin qurguvchi, O'zbek ayolidek fidoyi bormi?

So'nggi nafasda ham bolasin degan, Doimo farzandin g'amini yegan, Elini, yurtini jonidan sevgan, O'zbek ayolidek fidoyi bormi?

U Bibixonimdir, udir Nodira, U Zulfiya erur, go'zal shoira, Tafti qalbimizdan ketmaydi sira, O'zbek ayolidek fidoyi bormi?

Sevinch XURSANALIYEVA,  
Toshkent viloyati, Parkent  
tumanidagi 1-maktab o'quvchisi



O'rmondag'i qashqa Bo'rining bir bolasi juda maqtanchoq ekan. Doimo: «Men hech narsadan qo'rqmayman, kerak bo'lsa, o'rmonning narigi chetiga ham borib kela olaman», deya maqtanar ekan.

Bir kuni onasi ovga ketgach, u ham tashqari chiqibdi va uzoq yurib, o'rmonning bir chetida ovchining tuzog'iga ilinibdi. Qopqonning o'tkir tishlari uning oldindi oyoqlarini zirqiratib og'ritibdi. Azobdan uzoq g'ingshibdi, lekin hech narsa unga yordamga kelmadib. Faqat baxtiga kechga yaqin beazor Quyoncha kelib qolibdi. U ukasiga sabzi olib ketayotgan ekan.

– Nima bo'ldi senga, Bo'rivoy? – so'rabdi Quyoncha uning yig'layotganini ko'rib.

Bo'richa dag'al ohangda:

– Ko'zing ko'rmi, ko'rmayapsanmi, qopqonga tushib qoldim! – debdi.

Quyoncha qopqonning tishini ko'tarib, uni qutqarib olibdi. Bo'richaning qorni rosa ochgan ekan. Quyonchaga rahmat aytish o'miga, uning shirin hididan boshi aylanib: «Endi men seni yeyman», debdi.

Quyoncha hayron bo'lib:

– Bu qanaqasi, men senga yordam berdim-ku, rahmating shumi? – debdi ajablani.

Shu payt ona Bo'ri kelib qolibdi. Quyoncha qo'rqiб o'zini panaga olibdi. Onasini ko'rgan Bo'richa: «Uni yeyman, desam, xafa bo'lyapti», debdi. Ona Bo'ri bolasining oyoqlaridagi qonni ko'rib, nima bo'lganini so'rabdi. Quyoncha bo'lgan voqeani gapiribdi. Ona Bo'ri uning boshini silab: «Rahmat senga, Quyonvoy», debdi.

Bolasi hayron bo'libdi.

Ona Bo'ri uning ham boshini silabdi va:

– Yaxshilikka yaxshilik bilan javob qiladilar, bolam! – debdi.

Bo'ri bolasi uyalib, boshini egibdi.

Ona-bola Quyonchani uyasigacha kuzatib qo'yishibdi.

Orif TO'XTASH

## AJABTOVUR ARZNOMALAR (Turkum)



«Chiq-chiq» etib har doim, Vaqtini aytib turaman. Iltimos, qulog 'imni – Uncha qattiq buramang!

### TAROQ

– Qo'poloy kelib meni, Do'kondan sotib oldi. Uch kun o'tmasdan, qarang, Tishimni qoqib oldi.



### CHILDIRMA

– Meni derlar childirma, Qornim tarang, yapaloq. Hech bir kishi yemagan – Menchalik ko'p shapaloq.



### TO'P

– Meni hamma bolalar Jon dilidan sevishar. Yaxshi ko'rgani qursin, Keyin... rosa tepishar!



### SUMKA

– Darrov quvonch seziladi Ovozimdan. Ishlayman-da, men ikkita Lavozimda!

Daftar, kitob-u ruchka Bari menda. «Nonushta, tushlik» esa Yariminda.



Bir kuni Quyoncha o'ziga uycha quribdi, hatto unga kichkina deraza ham o'matibdi: stol-stul, taxta karavot ham yasabdi va shundan so'ng yangi, shinam, qulay xonasida rohatlanib yashay boshlabdi.

O'rmonda o'zini a sl佐da hisoblaydigan Kalamush ham yashar ekan. U juda tekintomoq bo'lib, har kimning bezor bo'lgan Kalamushing adabini berish uchun uning oldida borishibdi.

Kalamush issiqqina uysa, yumshoqqina ko'rpacha ustida oyoqlarini chalishtirgancha mazza qilib yotgan ekan. Burgut uni bir cho'qib, tashqariga sudrab chiqibdi. Ayiq uni so'roqqa tutibdi:

– Nega o'rmonda hech kimga kun bermaysan? Nega Quyonning xonasiga egalik qilding?

Kalamush balanddan kelibdi:

– Hov, nodon Ayiq, sen meni aslzodalardan ekanligimni bilmaysanmi? Yovvoyi Mushuk:

– Sen aslzoda emas, tekinxo'rsan! – debdi va chang solib, tumshug'ini yaralabdi.

Tozi It uni quva ketibdi. Burgut unga yetib olib, panjalari orasiga olibdi-da, osmon-u falakka chiqib, tashlab yuboribdi. Shunday qilib, o'rmondag'i barcha hayvonlar o'ziga bino qo'ygan K a l a m u s h d a n qutulishibdi.

## MAQTANCHOQNING holiga Voy





**Aziz bolalar!**

O'zbek san'ati o'zining betakrorligi, go'zal ohanglari bilan kishi qalbini rom etadi. Orangizda san'atga shaydo o'quvchilar ko'p.

Ular turli ko'rik-tanlovlardarda qatnashib, kelajakda san'atimizni yanada yuksak cho'qqilarga ko'tarishga harakat qilyaptilar. Bu yo'lida ularga ustozlar hayot yo'li saboq bo'ladi, deb o'ylaymiz. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Jabbor Razzoqovning quyidagi maqolasi ana shunday san'atkorlardan biri haqida.

Doiraning gohida ohista, gohida jarangdor, shiddatli ovozini eshitib, oddiygina cholg'u asbobida shunchalar ohang mujassam ekanligidan hayratlanasiz. Bu sirli ohanglar osonlikcha yaratilmaydi. Ularning shu darajada ovoza bo'lishida, tilga tushishida iste'dodli doirachi-larning mahorati, o'rni katta.

Bu san'at haqida so'z ketganda, birinchi navbatda O'zbekiston xalq artisti Usta Olim Komilovning nomini faxr bilan tilga olamiz. Ana shu milliy cholg'u asbobining nomini, ijro san'atini dunyoga yoyishda ustoz – O'zbekiston xalq artistlari Qahramon Dadayev va uning iste'dodli shogirdi Tal'at Sayfiddinovlarning ham xizmatlari beqiyos.

Adabiyotga, ijodga bor mehrini baxshida etgan O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov bu iste'dod egalari haqida shunday yozgan edi:

*Jamuljam ahli fazlu  
Ahli ta'b, dildor yoronlar,  
Navo tuzguchi xushxon,  
Tinglaguvchi nuqtodon bo'lsa.  
Kamon-u nayda Abdulhoshim-u  
Abdulahad yondosh,  
Zabon doiraga berguvchi  
Tal'at, Qahramon bo'lsa...  
Darhaqiqat, shunday.*

Samarqanddagi musiqa bilim yurtida tahlil olgan Tal'at otasining pedagogik sulolasini davom ettirish haqidagi pand-u nasihatlariga qaramay, orzusidan voz kechmadi. Otasini ko'ndirdi, oq fotinasi oldi...

Keyinchalik «Bahor»ning badiiy rahbari, ustoz san'atkor Mukarrama Turg'unboyevaneng e'tiboriga tushdi, ustoz Qahramon Dadayevdan doira chalish sirlarini mukammal o'rgandi. Birgalida dunyoning yuzga yaqin davlatlariga borib, o'zbek milliy kuylari,

## DOIRANING



raqslari ijrosida doiraning o'mini amalda namoyish etdi.

Doiraning urma-zarbli soz sifatida qadimda xalqimiz hayotida tutgan o'rni ko'pchilikka ma'lum. Lekin uning cheksiz imkoniyatlarini

hamma san'atkorlar ham ro'yobga chiqara olmaydi. Ustoz-shogird Qahramon aka bilan Tal'at akalar ana shu ijro san'atini eng yuqori cho'qqiga chiqarib qo'yan san'atkorlar sanalishadi. Ularning usullari va yo'lli batamom boshqacha.

Ustoz Qahramon Dadayev shunday deydi:

–Raqqosa har bir harakatidagi ma'noni o'z xiromlarida aks ettirishi, doirachi esa usul va chertma

berib, raqsni to'ldira olish mahoratiga ega bo'lishi kerak. Ana shundagina doira chertilganda, qalblar zavqqa to'ladi, kuya monand qo'shiq dilga kirib, uni zabit etadi.

«Bahor» sahnasida childirmakashlik bo'yicha o'ziga xos maktab yaratildi. Bu maktabda dunyo yuzini ko'rgan ko'plab doira ijrosidagi raqlar – «Pilla», «Soxta ufori», «Larzon», «Cho'pon», «Baliqchi», «Qo'sh doira», «Besh doira», «Katta o'yin»lar paydo bo'ldi. Bu raqlar tomosha qilib, zavqlanasiz. Tal'at aka ham ustoz yo'lidan borib, ana shu raqlarini yanada boyitdi, el-yurt xurmatiga sazovor bo'ldi.

Uning betakror mahorati haqida O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov shunday degan edi:

–Bizning virtuozi Qahramon Dadayev bitta doirada ming xil ohang, kuy iijo etadi. U san'atkormas, sehrgar. Faqat sehrgarlarga bunday iste'dod egasi bo'lishi mumkin...

Tal'at aka ana shu insondon doira san'atining nozik,

## OHANGI

betakror sirlarini o'rgandi. O'zi ham mahoratini butun dunyoga namoyish etdi.

Bugun betakror iste'dod egasi Tal'at aka Sayfutdinov oltmis besh nafar doirakash shogirdlari doirasida, nabiralar ardog'iда o'zining 65 yoshini qarshilayapti. U qo'liga doirasini olib, «Istiqlol» kuyini chalganida, olam yanada yorishib kетgандай bo'ladi, dillarni

«Bahor»ning ifori qamrab oladi.

Qarang, Tal'at aka doirada kuy iijo etyapti.

*Doira misoli parvona,  
Tinmayin aylanar boshida,  
Kamoli baxtidan quvona –  
Quvona o'ynardi qoshida!  
Bas, dedi: «Baka-bum, baka-bum»,  
Charchadi mehmonlar, endi bas!  
U deya: «Taka-tum, taka-tum»,  
Quvonchdan to'xtashni istamas.*


Jabbor RAZZOQOV,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

## USTOZGA

Qobiljon bilan bir sinifa o'qiganmiz. Yoshligidan adabiyotga qiziqishi, ayniqsa, she'rlarni ifodalii va shirali ovozda o'qishi uni makkatga, keyinchalik shaharga ham tanitdi. Saboq payti butun diqqatini jamlab o'tirishi, berilgan topshiriglarni o'z vaqtida bajarishi, doim a'lo baholar olishiga havasimiz kelardi. Makkatni bitirishimiz arafasida o'qituvchi bo'lish orzusida ekanligini aytganida, hech birimiz ajablanmadik. U bunday sharaflı kash egasi bo'lighga loyiqligini allaqachon ko'rsatgan edi.

Bir kuni bekatda yigirma yil avval rus tili va adabiyotdan saboq bergen ustozimga ko'zim tushdi. U kishi yo'lning narigi tomonida shoshganicha ketib borardi. Hali ham yosh yigitchalardek g'ayratga to'la Rustam akaning odimlari shaxdam edi. Bahorning ilk kunlari



## TA'ZIM

bo'lgani bois, g'ir-g'ir shabada esib turardi. Birdan ustoz qadamini sekinlatdi. E'tibor bermagan ekanman, yo'lakda bir bolakay zo'r berib varragini sozlash bilan ovora edi. Lekin uddasidan chiqolmayotgandi. Rustam aka qo'lidagi yukini bir chetga qo'yib, bolakay bilan varrakni sozlashga kirishdi. Bu manzarani kuzatar ekanman, nega u kishini barchamiz birdek yaxshi ko'rganimizni anglagandek bo'ddim. Shu bolakay kabi har birimiz ustozning mehridan bahramand bo'lgan ekanmiz.

Bugungi kunda ta'lim sohasi o'qituvchi va ustozlarga e'tibor har qachongidan ham yuqori darajaga ko'tarilgan. Bu sharaflı kasbni egallash orzusidagi yoshlarning safi kengayib bormoqda. O'qituvchilar kasb bayrami arafasida Chust shahridagi 2-akademik litseyining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Qobiljon Ubaydullayevga sobiq o'quvchilarining son-sanoqsiz tabriklariga guvoh bo'lib, do'stimga havasim keldi.

Yusuf ABDULLAYEV.

O.VOSIXONOV chizgan rasm


**KUZ YOMG'IRI**

Tomchi-tomchi tomchilab  
Unsiz yomg'ir yog'adi.  
Uning sirli shiviri,  
Dillarga xush yoqadi.

Yomg'ir yog'ar to'xtamay  
Kuzligini ko'rsatib.  
Kuzdan keyin kelar qish,  
Muzligini ko'rsatib.



Nargiza  
HOSHIMOVA,  
Jizzax viloyati,  
G'allaorol  
tumani

**AYLANMA SKANVORD**

Foziljon ORIPOV tuzdi

**TONG yulduzi****Muassislari:**

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jaimg'armasi.

**BOSH MUHARRIR:**  
To'iqin HAYITOV

Dizaynerlar:  
Fazliddin  
SHOYODGOROV,  
Olovuddin ORIPOV  
Rassom:  
Feruz MATYOQUBOV  
Navbatchi:  
Axtamqul KARIM

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Svetlana INOMOVA,  
Odina JAMOLDINOVA,  
Jahongir MUSAYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rmosari),  
Feruza ADIROVA  
(mas'ul kotib),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

**Manzilimiz:**  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@bk.ru  
www.tongyulduzi.uz  
**Tel:** 244-27-25, 244-63-08  
**Tel/faks:**  
(99871) 244-38-10

**O'zbekiston**  
NMUida chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftanigan dushanba kuni  
chiqadi. Shakli A-3,  
2 bosma taboq.  
**ISSN 2010-6092**  
**Adadi - 31668**  
**Buyurtma N: J 2879**

**BU GAP OMONATDIR****Odob burchagi**

1. Ilmning ofati – uni esdan chiqarmoqlik, ilmga  
rag'batli bo'lmagan insonlarga o'rgatib, vaqtin bekor  
ketkazmoqlikda.

2. Chaqimchilik nima? U odamlarning gaplarini,  
ularning o'zaro munosabatlarini buzish niyatida bir-  
birlariga tashimoqlikdir. Chaqimchilik qilmanglar.

3. O'zingizga yoqqan narsalarni boshqalarga ham  
ravo ko'ring.

4. Do'stingizni yengilroq seving, kuni kelib  
do'stingiz dashman bo'lib qolishi ham mumkin. Dashmaningizga ham yengilroq  
adovat qilingki, kuni kelib dashmaningiz do'st bo'lib qolishi mumkin.

5. Kiyimlaringizni ozoda tuting. Yuzdag'i chiroyli xoldek odamlarga ibrat,  
namuna bo'linglar.

6. Kim-kimni o'ziga do'st tutsa, u qalbidagi samimiy tuyg'usini bildirib qo'yisin.

7. Qachonki xayolingizdan biror shuhbali fikr o'tsa, uni darhol tark eting.

8. Biror kishi gapirayotgan paytida u yoq-bu yoqqa qarab qo'ysa, demak, bu gap  
omonatdir...



NARGIZA tayyorladi

**Haroratni  
bildiruvchi kiyim**

Go'dakning tana haroratini o'ichash  
oson ish emas. Yosh bola harorat  
o'ichagichni o'zida uzoq  
tutib turishni aslo  
istamaydi. Angliyadagi  
bir shirkat tana harorati 37 darajadan ko'ta-  
rilganda, tusini o'zgartiradigan ko'ylak-  
chalar tayyorlay boshladи. Go'dakning  
harorati ko'tarilganda, ko'ylakchasi och  
havoranga aylanadi.



DILOROM tayyorladi

**XANDALAR****O'qituvchi:**

- Komil, ertaga ota-onangsiz mакtabga kelma!
- Indinga-chi?..

**2-sentabr. 1-sinf. Muallima dedi:**

- O'quvchilar! Siz mакtabga keldingiz. Bu yerda jum  
o'tirish kerak. Agar biror nimani so'ramoqchi bo'lsangiz,  
qo'lingizni ko'taring!  
Shu payt Botir qo'lini  
ko'tardi.

**Muallima:**

- Ha, Botir, nima  
kerak?
- Hech narsa.  
Aytgan gaplarin-  
gizni amalda  
sinab ko'r-  
moqchi edim,  
xolos.



Fayzulla

ABDULLAYEV tayyorladi